

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**YAXSHIMURATOV MURODJON RAJAPBOY O‘G‘LI**

**KOBALT(II), NIKEL(II) VA MIS(II) FORMIATLARINING  
M-KREZOKSIATSETATLARI BILAN KOORDINATSION  
BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI HAMDA XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemistry sciences**

Yaxshimuratov Murodjon Rajapboy o‘g‘li Kobalt(II), nikel(II) va mis(II) formatlarining m-krezoksiatsetatlari bilan koordinasion birikmalari sintezi, tuzilishi hamda xossalari	3
Яхшимуратова Муроджона Раджапбой угли Синтез, строение и свойства координационных соединений формиатов кобальта(II), никеля(II) и меди(II) с м-крезоксиацетатами	23
Yakhshimuratov Murodjon Synthesis, structure and properties of coordination compounds of cobalt(II), nickel(II) and copper(II) formates with m-cresoxyacetates	43
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works .....	46

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**YAXSHIMURATOV MURODJON RAJAPBOY O‘G‘LI**

**KOBALT(II), NIKEL(II) VA MIS(II) FORMIATLARINING  
M-KREZOKSIATSETATLARI BILAN KOORDINATSION  
BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI HAMDA XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K618 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hasanov Shodlik Bekpo'latovich**  
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Rafikov Adxam Salimovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Razzoqova Surayyo Razzoqovna**

kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti.**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (998 71) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, faks: (+998 71) 246-53-21, (998 71) 246-02-24, e-mail: [ilmiy.kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy.kengash@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; 227-12-24, faks: (+998 71) 246-53-21, 246-02-24). e-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.A.Smanova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
k.f.d., professor

**N.X.Qutlimurotova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
k.f.d., professor

**Sh.A.Kadirova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda inson organizmida va o‘simliklarda, hayvonot olamida turli xil kasalliklar sonining oshishi ularni davolovchi, ko‘p tomonlama ta‘sirga hamda kam zaharlilikka ega bo‘lgan preparatlarni ishlab chiqishga bo‘lgan talabni oshiradi. Bunday preparatlarga geterometall atomlarining turli xil ligandlar bilan bog‘langan koordinatsion birikmalar kiradi, chunki ular yallig‘lanish, rak va mikroblarga qarshi vositalar, sanoatda katalizatorlar, qishloq xo‘jaligida o‘simliklarning o‘shishini rag‘batlantiruvchi immunomodulyatorlar, defoliantlar va pestitsidlar sifatida keng qo‘llaniladi. Shuning uchun biologik faolligi yuqori bo‘lgan kompleks birikmalarni sintez qilish va qishloq xo‘jaligida qo‘llash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bugungi kunda geterometall atomlari tutgan supramolekulyar koordinatsion birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishlarini, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash, hosil bo‘lishning maqbul sharoitlarini topish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, d-metallarining formiat turidagi m-krezoksiatsetat ligandi bilan koordinatsion birikmalarining tarkibi va tuzilishi, xossalari bog‘liqligini aniqlash, amaliyotga joriy qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda agrosanoat majmuasini rivojlantirishda ko‘p yadroli geterometall koordinatsion birikmalar asosida olinadigan yuqori samarali, iqtisodiy jihatdan arzon va import o‘rnini bosuvchi o‘simliklarni o‘stiruvchi immunomodulyatorlarning yangi turlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha muayyan yutuqlarga erishilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida “qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali fermer xo‘jaliklari daromadini kamida 2 baravar oshirish va agrar sohaning yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish”<sup>1</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo‘jaligi ekinlarining vegetatsiya davrini qisqartirish, o‘shish jarayonlarini rag‘batlantirish hamda hosildorlikni barqaror oshirishni ta‘minlashga qodir bo‘lgan arzon va ekologik xavfsiz preparatlarning yangi turlarini sintez qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Dunyo ilm-fanida geterometall poliyadroli koordinatsion birikmalar kimyosi Balzani V., Juris A., Venturi M., Aboshyan-Sorgho L., Besnard C., Pattison P., Kittilstved K.R., Aebischer A., Bunzli J.C., Hauser A., Piguet C. kabi olimlar ishlarida koʻrib chiqilgan. Tadqiqotlar natijasida gomo va geterometall koordinatsion birikmalar sintezi amalga oshirilgan, ularning tuzilishi, kimyoviy va ayrim fizik xossalari taxlili asosida bir nechta sintez usullar ishlab chiqilgan.

MDH mamlakatlarida koordinatsion birikmalar va ularning amaliyotga tadbiqu boʻyicha I.P.Stolarov, N.V.Cherkashina, I.A.Yakushev, A.V.Churakov, A.B.Kornev, V.S.Sergienko, G.G.Aleksandrov, I.I.Seifullina boshchiligidagi olimlarning ilmiy guruhlar va maktablari shugʻullanishgan. Olimlar tomonidan kompleks birikmalarning tuzilishi, tarkibi, xossasi va biologik faolligi boʻyicha bir qancha ishlar tahlili amalga oshirilgan.

Respublikamizda koordinatsion birikmalar kimyosi sohasida ish olib borgan N.A.Parpiyev, Sh.A.Kadirova, T.A.Azizov, X.T.Sharipov, B.B.Umarov, O.F.Xodjayev, Sh.Sh.Daminova, Z.Ch.Kadirova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tiazolin xosilalari, Shiff asoslari, olti aʼzoli geterotsiklik birikmalar, metall karboksilatlar bilan amidlar asosida koordinatsion birikmalari sintez qilingan, tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Keltirilgan maʼlumotlarga asoslangan xolda oraliq metallar karboksilatlar asosida poliyadroli koordinatsion birikmalar sintezini amalga oshirish, olingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish kam oʻrganilgan soha ekanligi maʼlum boʻlmoqda. Shuning uchun turli metallar tutgan koordinatsion birikmalar sintezini amalga oshirish va tahlillar oʻtkazish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Il-402104238 (2022-2024-yy.) “Indigofera (Indigofera tinctoria L) oʻsimligini yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** s, d-metall m-krezoksiatsetatlarining kobalt(II), nikel(II) va mis(II) formiatlari bilan koordinatsion birikmalari sintezi, tuzilishi hamda xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari :**

- kompleks birikmalarning hosil boʻlishida dastlabki moddalarning mol nisbatini kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;
- ikki valentli kobalt, nikel va mis formiatlarining s-, d-metall m-krezoksiatsetatlar bilan kompleks birikmalarini sintezini amalga oshirish;
- sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan foydalangan holda aniqlash;

- kompleks birikmalarning biologik xossalarini “Molekulyar doking” usuli yordamida tahlil qilish;

- aniqlangan nazariy biologik xossalarini amaliyotda isbotlash uchun dala sharoitida tajribalar olib borish.

**Tadqiqotning obyekti:** kalsiy, bariy, rux, va marganes(II) metakrezoksiatsetatlari, Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlari.

**Tadqiqotning predmeti** kalsiy, bariy, rux va marganes(II) metakrezoksiatsetatlari bilan, Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlari bilan koordinatsion birikmalarining sintez qilish usullari, tarkibi, tuzilishi, individualligi, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari:** rentgenfazaviy tahlil, IQ-spektroskopiyasi, EPR-spektroskopiyasi, differensial skanirlovchi kalorimetriya, strukturaviy tahlil, element, termik analiz, kvant kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:** Kvant-kimyoviy usullar yordamida koordinatsion birikmalarning geometrik va energetik parametrlari, atomlardagi zaryadlarning taqsimoti, geometriyasi hamda reaksiya qobiliyatidan kelib chiqib optimal sharoiti  $[\text{Ni}(\text{F})_2]:[\text{MKA}]_4\text{Zn}_2]$  1:2 nisbatda koordinatsion soni 6 ga teng bo‘lgan birikmada elektron energiyasi qiymati -358,49 kJ/mol ekanligi nazariy hisoblashlar yordamida aniqlangan;

ilk bor natriy, kaliy, kalsiy, bariy, rux, xrom(II) va marganes(II) metakrezoksiatsetatlar bilan, Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlari asosida 18 ta yangi anion, neytral koordinatsion birikmalari 76,8-83 % gacha unum bilan sintez qilingan.

sintez qilingan kompleks birikmalarning IQ-spektrda Ni-O qisqa to‘lqin uzunliklarining  $688-642 \text{ cm}^{-1}$  sohalarida siljishi kuzatilishi m-krezoksiatsetat  $\nu_{\text{as}}(\text{C}=\text{O}^-) - \nu_{\text{s}}(\text{C}=\text{O}^-) = 203 \text{ cm}^{-1}$  ushbu qiymat metall atom bilan monodentat bog‘ hosil bo‘lishini anglatadi hamda EPR spektroskopiya usuli bilan turli elektron tuzilishli  $\text{Cr}^{+2}(3d^4)$ ,  $\text{Mn}^{+2}(3d^5)$ ,  $\text{Co}^{2+}(3d^7)$ ,  $\text{Cu}^{2+}(3d^9)$  paramagnit metall ionlarining gomo va aralash ligandli komplekslari tuzilishi, magnetokimyoviy xossalari markaziy ionlar elektron konfiguratsiyasi, ligand tabiatiga bog‘liqligi isbotlangan;

ilk bor  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  va  $\text{Cu}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Mn}_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$  polikristallar sintez qilinganligi rentgenfazaviy tahlil difraktogramma asosida FullProf dasturida qayta ishlash yordamida kompleks birikmalarning kristall tuzilishi isbotlangan;

sintez qilingan  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  kompleks birikmasining Indigofera o‘simligining tashqi muhitning zararli ta’sirlariga bardoshlilikini oshirishda,  $\text{Ca}_2[\text{Cu}(\text{F})_2(\text{MKA})_4]4\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikmasi esa sholining rivojlanishi, ro‘vakdagi donlar soni va bo‘yi nazoratga nisbatan yuqoriligi aniqlanib, o‘simlikda zamburug‘lar keltirib chiqaradigan pirikulyarioz va boshqa kasalliklarga immunomodulyator xossasi yuqoriligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ilk bor Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlari bilan, natriy, kaliy, kalsiy, bariy, rux, xrom(II) va marganes(II) metakrezoksiatsetatlar ligandlari bilan ishlab chiqilgan 2 ta sintez usullari asosida 18 ta yangi gomo hamda aralash ligandli koordinatsion birikmalari sintez qilingan;

sintez qilingan  $\text{Ca}_2[\text{Cu}(\text{F})_2(\text{MKA})_4]4\text{H}_2\text{O}$  hamda  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  kompleks birikmalari molekulyar doking usuli yordamida olingan kompleks birikmalarning biologik faolligi tasdiqlangan;

sintez qilingan kompleks birikmalardan sholi o‘simligining bakteriyali va zamburug‘li kasalliklariga chidamliligini oshrib hosildorligi nazorat variantiga qaraganda gektariga 5-6 sentnerga oshganligi hamda indigofera o‘simligining tashqi muhitning zararli ta’sirlariga bardoshlilikini oshiruvchi immunomodulyator xususiyatga ega ekanligi tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi:** IQ, EPR spektroskopiya, element, rentgenfazaviy, strukturaviy, derivatografik va biologik tahlil hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar kabi zamonaviy tadqiqot usullari bilan isbotlangan. Eksperimental tadqiqotlar natijalari nazariy kvant-kimyoviy hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan, bu esa ma’lumotlarning o‘zaro muvofiqligini va olingan xulosalarning yuqori darajadagi ishonchligini ta’minlaydi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikada ilk bor natriy, kaliy, kalsiy, bariy, rux, xrom(II) va marganes(II) metakrezoksiatsetatlar, Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlari asosida 18 ta yangi koordinatsion birikmalarini sintez qilishning optimal parametrlari aniqlangani, yangi kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, barqarorligi va xossalari aniqlash natijalari hamda xulosalarni zamonaviy fizik-kimyoviy taxlil usullari natijalariga tayangan holda amalga oshirilganligi va koordinatsion birikmalar kimyosini nazariy jihatdan yangi materiallarga boyitganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** qishloq xo‘jaligi ekinlarini kasalliklarga chidamliligini oshiruvchi yuqori samarali immunomodulyator aniqlanganligi, sintez usullari hamda olingan nazariy materiallarni davlat ilmiy-texnik loyihalarni bajarishda qo‘llanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sintez qilingan  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  kompleks birikma Indigofera o‘simligiga immunomodulyator sifatida, Urganch davlat universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104238 “Indigofera (*Indigofera tinctoria* L.) o‘simligini yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish” (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi 4/17-4/4-11227-son malumotnomasi) loyihasida qo‘llanilgan. Natijada indigofera tarqalgan hududlarning tuproq unumdorligini oshirish uchun tarkibidagi mineral tuzlar miqdorini tahlil qilish imkoni berdi;

$\text{Ca}_2[\text{Cu}(\text{F})_2(\text{MKA})_4]4\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikma sholi o‘simligiga immunomodulyator sifatida qo‘llanildi (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 29-martdagi 05/01-05/02-05/04-04-116-son malumotnomasi). Natijada sholining rivojlanishi, ro‘vakdagi donlar soni va bo‘yi nazoratga nisbatan yuqoriligi aniqlandi hamda o‘simlikda zamburug‘lar keltirib chiqaradigan pirikulyarioz va boshqa kasalliklarga chalinish holatlari kuzatilmadi. Sholining unib chiqishi, rivojlanishi, hosildorligi nazorat variantiga qaraganda kompleks modda bilan ishlanganda gektariga 5-6 sentnerga oshganligi isbotlandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil qiladi.

### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


Ishning kirish qismida olib borilgan ilmiy izlanishning dolzarbligi asoslangan holda ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniq belgilangan. Tadqiqot obyekti va predmeti aniqlashtirilib, izlanish O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda amalga oshirilgan. Ilmiy yangilik sifatida ilgari fan adabiyotida yetarlicha yoritilmagan masalalarga yangi ilmiy yondashuvlar va qarashlar taklif etilgan, amaliy natijalar esa nazariy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali amaliy ahamiyat kasb etgan. Olingan natijalar ishonchliligi tegishli dalillar va tahlillar bilan asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, tadqiqot natijalari joriy etilgan tashkilot va korxonalar, chop etilgan ilmiy maqolalar ro'yxati hamda dissertatsiya tuzilishi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Biogen metallar va krezoksisirka kislotalarining geterometall komplekslari (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida biogen metallar ya'ni tirik organizmlarda muhim fiziologik vazifalarni bajaruvchi metall elementlar (masalan, Fe, Cu, Zn, Mn va boshqalar) va krezoksisirka kislotalarning o'ziga xos xossalari, ularning kimyoviy va biologik faolligi ko'rib chiqilgan. Sharhda bu ikki sinf moddalarning geterometall komplekslar hosil qilishdagi ro'li, komplekslashish mexanizmlari va ularning tuzilmasiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu komplekslarning sintezi, spektroskopik xossalari, koordinatsion kimyodagi ahamiyati hamda farmatsevtika, bioorganik kimyo va katalizda qo'llanilish imkoniyatlari haqida mavjud ilmiy manbalar asosida xulosalar berilgan. Ishning maqsadi biogen metallar asosidagi yangi geterometall komplekslarni chuqur o'rganish orqali, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritishdan iborat.

Dissertatsiyaning **“Kobalt(II), nikel(II) va mis(II) formiatlarining m-krezoksiatsetatlar bilan koordinatsion birikmalari sintezi (tajriba qismi)”** deb nomlangan ikkinchi bobida birikmalarni sintez qilish, skanerlovchi elektron mikroskopiya va alangali fotometrik usullari yordamida sintez qilingan birikmalarning element tahlilini amalga oshirish, kompleks birikmalarning ba'zi fizik va kimyoviy xossalarini o'rganish natijalari keltirilgan (1-rasm).


Hosil bo'lishi mumkin bo'lgan kompleks birikmalar tuzilishi bo'yicha Gaussian 9.0 dasturiy ta'minotining DFT nazariyasi doirasida 3-21G B3LYP usulida optimallashtirildi. Mumkin bo'lgan koordinatsion tuzilishning to'rtta varianti ko'rib

chiqildi: 1:1 nisbatda koordinatsion sonlari 4 va 6 bo‘lgan nikel formiat va rux metakrozoksiatsetat, 1:2 nisbatda koordinatsion sonlari 6 hamda 8. Kompleks birikmalarning barqarorligi minimal elektron energiyasi asosida aniqlandi. Olingan tahlil natijalariga ko‘ra, 1:1 nisbatda koordinatsion soni 4 ga teng bo‘lgan birikmaning erkin energiyasi -11,52 kJ/mol va 6 ga teng bo‘lgan birikmada 366,18 kJ/mol, 1:2 nisbatda koordinatsion soni 6 ga teng bo‘lgan birikmada -358,49 kJ/mol va 8 ga teng bo‘lgan birikmada 847,11 kJ/mol ekanligi nazariy hisoblashlar yordamida aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, 1:2 nisbatda koordinatsion soni 6 ga teng bo‘lgan birikmaning erkin energiyasi eng minimal qiymatni tashkil qildi.




1-rasm. Ni (II) formiat va Zn metakrezoksiatsetat asosida olinishi mumkin bo‘lgan koordinatsion tuzilish variantlari: 1:1 nisbatda koordinatsion sonlari 4 (a) va 6 (b) bo‘lgan, 1:2 nisbatda koordinatsion sonlari 6 (c) va 8 (d).


**Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlarining Ca, Ba, Zn, Cr(II) hamda Mn(II) metakrezoksiatsetatlari bilan kompleks birikmalari sintezi:** Kompleks birikma sintezi quyidagi usul bo‘yicha amalga oshirildi: 0,01 mol M formiat 15 ml suvda eritildi. Boshqa stakanda 0,02 mol  $M^I$  metakrezoksiatsetat 20 ml 1:1 nisbatdagi suv: asetonitril aralashmasida issiq suv hammomida (50-55 °C haroratda) qizdirib, eritildi. So‘ngra M-formiat eritmasi ustidan tomchilatib,  $M^I$ -metakrezoksiatsetatning issiq eritmasi qo‘shildi va aralashma hajmi 1,5 marta kamayguncha 4 soat davomida bug‘latildi. Olingan eritma 2 kunga qoldirildi. Hosil bo‘lgan kukunsimon modda 2 ml distillangan suv va 2 ml spirt aralashmasida eritildi hamda qayta kristallash uchun 72 soatga qoldirildi. Olingan moddalar massasining dastlabki moddalar massasiga nisbatan unumi 76,8-83 %ni tashkil qildi. (M = Co(II), Ni(II), Cu(II);  $M^I$  = Ca, Ba, Zn, Cr(II), Mn(II);).



**Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlarining natriy hamda kaliy M-krezoksiatsetatlari bilan kompleks birikmalari sintezi:** 0.04 mol NaOCH<sub>2</sub>COO-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>CH<sub>3</sub> yoki KOCH<sub>2</sub>COO-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>CH<sub>3</sub> olindi. 100 ml suv-etanol (1:1) aralashmasida eritiladi. Eritma doimiy aralastirilib turgan holda 0.01 mol Co(F)<sub>2</sub>, Cu(F)<sub>2</sub> yoki Ni(F)<sub>2</sub> tuzlarining 50 ml suv + 10 ml etanol aralashmasidagi eritmasi tomchilatib solindi. pH muhitini 5-7 oralig'ida ushlab turish uchun formiat kislotasi ham qo'shildi. Eritma 50-60°C haroratda 2-3 soat davomida magnitli aralastirgichda aralastirildi. Olingan eritmaning konsentratsiyani oshirish maqsadida hajm 2 marta kamayguncha bug'latildi. Keyin kompleks birikma kristallarini olish uchun ikkinchi erituvchi sifatida asta-sekin atseton qo'shildi (M = Co (II), Ni (II), Cu (II); M<sup>II</sup> = Na, K).




Co (II), Ni (II) va Cu (II) formiatlarining natriy, kaliy, kalsiy va bariy metakrezoksiatsetatlari asosida olingan kompleks birikmalar tarkibidagi ishqoriy hamda ishqoriy-yer elementlarini aniqlash maqsadida alangali fotometriya usulidan foydalanildi. Kompleks eritmasi olinadi va distillangan suv bilan suyultirildi. Ushbu ionlar tashqi sferada bo'lgani uchun qo'shimcha reagent talab etilmaydi (2-rasm).



2-rasm.  $K_4[Co(F)_2(MKA)_4] \cdot 6H_2O$  tarkibli kompleks birikmaning spektri.

Hosil bo'lgan kompleks birikmalardagi uglerod, kislorod va metallarning miqdorlarini SEM-EDT usulida ham aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida ligandlar bilan metall ionlarining koordinatsiyalanishi ligandlar mikrostrukturasi o'zgarishiga olib kelganligi va uni ko'plab metall cho'qqilar qayd qilganligini ko'rish mumkin. Buni esa EDT tomonidan tasdiqlangan (3- rasm).



3-rasm.  $[Ni(F)_2(MKA)_4Zn_2] \cdot 4H_2O$  mikrostrukturasi va energiya dispersion tahlil natijasi.

## 1-jadval

### Metall formiatlari asosida olingan kompleks birikmalarning element tahlili natijalari

№	Birikma	M <sup>I</sup>		M <sup>II</sup>		C		O	
		Hisoblandi	topildi	Hisoblandi	topildi	Hisoblandi	topildi	Hisoblandi	Topildi
1	K <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	6.6	6.63	16.08	16.14	47.01	46.98	26.39	26.48
2	Na <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	7.06	7.01	10.15	10.16	50.33	50.26	28.22	28.31
3	Ba <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	5.88	5.93	25.18	25.22	41.91	41.87	23.52	23.62
4	Ca <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	7.16	7.11	8.94	8.83	51.01	49.51	28.63	28.49
5	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	6.97	6.91	11.32	11.3	49.67	49.64	27.88	27.96
6	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	6.78	6.82	13.77	13.81	48.30	48.26	27.1	27.23
7	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	6.93	6.88	11.91	11.89	49.35	49.31	27.7	27.11
8	K <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	6.11	6.19	16.16	16,13	47.25	47.23	26.52	26.58
9	Na <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	6.55	6.71	9.98	10.57	50.61	52.65	28.41	29.32
10	Ba <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	5.45	5.39	25.3	25,52	42.11	42.13	23.63	23.69
11	Ca <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	6.63	6.69	8.99	9,03	51.3	51.27	28.79	28.82
12	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	6.46	6.53	11.39	11.35	49.95	49.95	28.03	28.12
13	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	6.29	6.48	13.85	13.39	48.56	50.56	27.26	28.59
14	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	6.42	6.49	11.97	12.01	49.62	49.59	27.85	27.89
15	K <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	6.11	6.13	16.16	16.18	47.25	47.24	26.52	26.59
16	Na <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	6.55	6.47	9.98	9.93	50.61	50.55	28.41	28.51
17	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	6.29	6.31	13.85	13.82	48.56	48.55	27.26	27.29
18	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	6.42	6.44	11.97	11.96	49.62	49.61	27.85	27.93

**Izoh:** M = Cu, Co, Ni; M<sup>I</sup> = Ca, Ba, Zn, Cr, Mn; M<sup>II</sup> = Na, K.

Hosil bo‘lgan kompleks birikmalarda sodir bo‘ladigan reaksiyalarni aniqlash maqsadida ularning kimyoviy xossalari o‘rganildi. Jumladan, ligand vazifasini bajaruvchi formiat va metakrezoksiatsetat kislota anioniga, markaziy metall kationiga sifat reaksiyalari o‘tkazildi hamda kompleks birikmalarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ion almashinish reaksiyalarini aniqlash uchun anion komplekslarga kuchli va kuchsiz sulfat kislota, ishqor va tuz eritmalari ta’sir ettirildi. Formiat ioniga sifat reaksiyasi neodim (III) kationi, metakrezoksiatsetat anioniga esa kadmiy kationi bilan o‘tkazildi. Markaziy atom vazifasini bajaruvchi metallar uchun esa ishqor eritmasidan foydalanildi.

## Reaksiya natijalari

№	Kompleks birikmalar	Reagentlar			
		KH <sub>2</sub> SbO <sub>4</sub>	Na <sub>3</sub> [Co(NO <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> ]	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>
1	K <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	-	Sariq cho'kma	-	-
2	Na <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	Oq cho'kma	-	-	-
3	Ba <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	-	-	-	Oq cho'kma
4	Ca <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	-	-	Oq cho'kma	-
6	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	-	-	-	-
7	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	-	-	-	-
8	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	-	-	-	-
9	K <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	-	Sariq cho'kma	-	-
10	Na <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	Oq cho'kma	-	-	-
11	Ba <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	-	-	-	Oq cho'kma
12	Ca <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	-	-	Oq cho'kma	-
14	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	-	-	-	-
15	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	-	-	-	-
16	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	-	-	-	-
17	K <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	-	Sariq cho'kma	-	-
18	Na <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	Oq cho'kma	-	-	-
20	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	-	-	-	-
21	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	-	-	-	-

Kompleks birikma eritmalaridagi natriy, kaliy, kalsiy va bariy ionlarini aniqlash maqsadida ularga xos bo'lgan sifat reaksiyalari o'tkazildi. Ya'ni natriy ioni kaliy digidroantimonat, kaliy ioni natriy geksanitrokobaltat (III), kalsiy ioni natriy karbonat va bariy ionlari esa natriy sulfat tuzi yordamida aniqlandi.

Barcha kompleks birikmalardagi markaziy atom vazifasini bajaruvchi metallar metallar Co(II), Ni(II), Cu(II) uchun ishqor eritmasidan foydalanildi. Ushbu reaksiyalar natijasida metall gidroksidlariga xos bo'lgan cho'kmalar hosil bo'lmadi. Bundan tashqari, Zn, Mn (II) kationlarining tashqi yoki ichki sferada ekanligini aniqlash uchun Na<sub>2</sub>S eritmasi, Cr (II) kationi uchun esa ishqor eritmasidan foydalanildi. Natijada ularga xos bo'lgan cho'kmalar hosil bo'lmadi.

## 3-jadval


## Cu (II) formiat asosida olingan kompleks birikmalarning ayrim fizik xossalari

№	Birikma	Rangi	T <sub>suyuq</sub> °C	erituvchilarda eruvchanligi				
				Suv	Efano I	Atset onit	Benz ol	Suv:a tset
1	K <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	To‘q ko‘k	255-260	E	KE	KE	EM	E
2	Na <sub>4</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	Ko‘k	213-214	E	KE	KE	EM	E
3	Ba <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	Yashil- ko‘k	297-300	E	KE	EM	EM	E
4	Ca <sub>2</sub> [Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	Ko‘k	268-271	E	KE	KE	EM	E
5	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	To‘q ko‘k	311-313	EM	KE	EM	EM	E
6	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	Ko‘k	256-258	KE	KE	EM	EM	E
7	[Cu(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	To‘q ko‘k	244-245	EM	KE	EM	EM	E
8	K <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	Qizil	269-270	E	EM	EM	EM	E
9	Na <sub>4</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	To‘q qizil	252-256	E	EM	EM	EM	E
10	Ba <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•7H <sub>2</sub> O	Qizil	288-291	KE	EM	KE	EM	KE
11	Ca <sub>2</sub> [Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•6H <sub>2</sub> O	Och qizil	223-224	KE	EM	KE	EM	KE
12	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Cr <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	Qo‘ng‘ir qizil	273-274	EM	EM	EM	EM	E
13	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	Qizil	200-206	EM	EM	KE	EM	E
14	[Co(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	Qizil	293-294	KE	EM	EM	EM	E
15	K <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•2H <sub>2</sub> O	To‘q yashil	280-283	E	EM	EM	EM	E
16	Na <sub>4</sub> [Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> ]•8H <sub>2</sub> O	To‘q yashil	259-260	E	EM	EM	EM	E
17	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Zn <sub>2</sub> ]•4H <sub>2</sub> O	Och yashil	244-245	EM	EM	EM	EM	KE
18	[Ni(F) <sub>2</sub> (MKA) <sub>4</sub> Mn <sub>2</sub> (H <sub>2</sub> O) <sub>4</sub> ]	To‘q yashil	282-284	EM	KE	KE	EM	E

**Izoh:** “E” - eriydi, “KE” - kam eriydi, “EM“ – erimaydi.

**“Kobalt(II), nikel(II) va mis(II) formiatmetakrezoksiatsetatli koordinatsion birikmalarining fizik-kimyoviy tadqiqoti hamda biologik faolligi”** deb nomlangan III bobda kobalt(II), nikel(II) va mis(II) ning formiatmetakrezoksiatsetatli koordinatsion birikmalarining zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqoti natijalari keltirilgan. Sintez qilingan birikmalar differensial-termik, rentgenfazaviy, IQ-, DQES va strukturaviy tahlil kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilingan. Tahlillar asosida sintez qilingan birikmalarning strukturalari taklif qilingan. Kompleks birikmalarning biologik faolliklari molekulyar doking usuli yordamida nazariy va dala sharoitida amaliy o‘rganilgan.

Moddaning sof yoki aralashma ekanligini aniqlashda rentgenofazaviy tahlil usulidan foydalanildi. Moddaning panjara parametrlari va tuzilishi hamda har bir cho‘qqining burchagi ( $2\theta$ ) va intensivligi asosida kristall panjara parametrlari hisoblandi. 4-rasmda keltirilgan grafikda nikel (II) formiat (ko‘k), Zux (II) metakrezoksiatsetat (qizil) va ular asosida olingan kompleks birikma (yashil) uchun olingan rentgenofazaviy tahlil (XRD) natijalari taqqoslangan. Nikel (II) formiatning difraksiya spektrida juda ko‘p intensiv cho‘qqilar mavjud, bu uning yuqori darajada kristallangan ekanligini ko‘rsatadi.




4-rasm.  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  kompleks birikmasining dastlabki moddalar bilan taqqoslangan rentgenogrammasi.

4-jadval


Rentgenofazaviy tahlil natijalarining xossalari bo‘yicha taqqoslanishi

Modda	Asosiy difraksiya cho‘qqilari ( $^{\circ}2\theta$ )	Kristall tuzilish xususiyatlari
Kobalt (II) formiat	10-25 $^{\circ}$ , eng baland cho‘qqilar	Yuqori kristallangan faza
Rux metakrezoksiatsetat	10-30 $^{\circ}$ , kamroq cho‘qqilar	Kam kristallangan yoki qisman amorf
$[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$	15-25 $^{\circ}$ , yangi cho‘qqilar mavjud	Yangi kristall faza shakllangan

Kompleks birikma tuzilishini aniqlashda infraqizil (IQ) spektri juda muhim ahamiyatga ega. IQ-spektroskopiyasi molekuladagi funksional guruhlarning tebranish chastotalarini o‘lchash orqali ularning mavjudligi va bog‘lanish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ni (II) formiati va Na metakrezoksiatsetat asosida olingan kompleks birikmaning IQ-spektrida quyidagi tebranish chastotalarida cho‘qqilar hosil bo‘lgan: 3035  $\text{cm}^{-1}$  soha birikma tarkibida gidroksil guruhi borligini ko‘rsatadi. 2924 – 2850  $\text{cm}^{-1}$  sohadagi tebranish aromatik halqadagi CH bog‘lariga tegishli. 2718-2240  $\text{cm}^{-1}$  sohadagi kuchsiz tebranishlar radikal tarkibidagi C-H bog‘larga tegishli bo‘lishi mumkin. 1708-1595  $\text{cm}^{-1}$  kuchli tebranish karboksilat ( $\text{COO}^-$ ) guruhlari C=O tegishli.



5-rasm.(a) Meta-krezoksietsetat kislotasining IQ-spektri.




5-rasm.(b) Ni (II) formiati va Na meta-krezoksietsetat asosida olingan kompleks birikmaning IQ-spektri.

DQES usuli yordamida kompleks tarkibidagi ligandlar va markaziy ionlar orasidagi nisbat baholanadi. Turli ligandlar bilan bogʻlangan birikmalarning spektral farqlari tahlil qilinadi va komplekslarning hosil boʻlish reaksiyasi kuzatiladi.


6-rasmida kobalt (II) formiat va natriy metakrezoksietsetat asosida olingan kompleks birikmaning diffuz qaytarilish elektron spektri keltirilgan. Elektron spektr metal ionlari va ularning ligandlar bilan oʻzaro taʼsiri natijasida hosil boʻladigan d-d oʻtishlarni aniqlash imkonini beradi. Grafikda 5 ta aniq maksimum (choʻqqi) mavjud. Bu choʻqqilar turli elektron oʻtishlarni bildiradi, ular esa kobalt (II) ionining ligandlar bilan kompleks hosil qilganligini koʻrsatadi. Agar faqatgina erkin kobalt (II) ion boʻlganida, bu qadar murakkab va koʻp choʻqqili spektr kuzatilmay edi. Ligand maydonining taʼsiri kobalt(II) ionining energiya sathlarini boʻlib yuboradi, bu esa spektrda turli toʻlqin uzunliklarida yutilishni yuzaga keltiradi. Grafikda koʻrinayotgan choʻqqilar, aynan ligandlar bilan koordinatsiyalangan kobalt(II) ioniga xos boʻlib, bu kompleks hosil boʻlganining isboti sifatida qabul qilinadi. 5 ta

cho‘qqi (1-5) va ularning taxminiy to‘lqin uzunliklari (nm) hamda intensivlik cho‘qqilari asosida qaysi elektron o‘tishga to‘g‘ri kelishi mumkinligi keltirilgan.



6-rasm.  $\text{Na}_4[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4] \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikmasining diffuz qaytarilish elektron spektri.


Moddalarning fazaviy va kristallik tuzilmasini chuqur o‘rganish uchun zamonaviy difraktometrik usullar bilan bir qatorda, eksperimental difraktogrammalarni matematik modellashtirish va ularni nazariy model bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Rietveld tahlili asosida ishlovchi FullProf dasturi samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu tahlil usuli yordamida kobalt (II) formiat va rux metakrezoksiatsetat hamda mis (II) formiat va marganes (II) metakrezoksiatsetat asosida olingan kompleks birikmalarning kristallografik ma‘lumotlari hamda strukturasi aniqlik kirituvchi parametrlar aniqlandi.



7-rasm.  $[\text{Co}(\text{F})_2(\text{MKA})_4\text{Zn}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$  kompleks birikmaning molekulyar tuzilishi va kristall yacheykada joylashuvi.

